

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITATI

Muhhamadali Mirabdullayev

**Vokal asoslari
fanida
ovoz sozlash mashqlari
va
maktab repertuari**

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

Namangan – 2009

«Vokal asoslari fanida ovoz sozlash mashqlari va maktab repertuari »

o`quv-uslubiy qo`llanma

Namangan Davlat Universiteti o`quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashr etishga tavsiya etilgan.

(bayonnoma № -- ----- 2009-yil)

Taqrizchilar:

*Namangan Davlat Universiteti musiqiy ta'lim kafedrası mudiri,
katta o`qituvchisi:*

N.Abdullayev

*Namangan Davlat Universiteti musiqiy ta'lim kafedrası
katta o`qituvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist :*

M.Rahmonov

Namangan Davlat Universiteti musiqiy ta'lim kafedrası o`qituvchisi:

T. Ortiqov.

Muharrir:

Namangan Davlat Universiteti musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti:

O. Azizov

Mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma kompozitorlarining eng yaxshi asarlari va ovoz sozlash mashq asosida tuzilgan bo`lib musiqiy ta'lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalarga «Ta'lim `g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'limni tubdan isloh qilish, uni jahon andozalari talablariga javob beradigan yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasini beradi.

O`quv-uslubiy majmua 5141000-musiqiy ta'lim yo`nalishi bo`yicha tahsil layotgan talabalar va 3140020- musiqiy ta'lim yo`nalishi bo`yicha tahsil olayotgan pedagogika kolleji o`quvchilar uchun mo`ljallangan.

UQTIRISH XATI

Bizga ma'lumki, har bir qilingan ish o'z vaqtida qadrlangani bilan ma'lum davr o'tgach o'z qimmatini yo'qotadi. Hozirgi kunda Musiqa ta'limi tizimida ko'plab qo'llanma va adabiyotlar mavjud bo'lsada biroq, ulardan doimiy foydalanish hamisha ham yaxshi samara beravermaydi yoki ulardan foydalanishda qandaydir yaxshi natijalar olib bo'lmaydi. Qo'limizdagi o'quv qo'llanma sizning hukmingizga xolis niyatlar bilan taqdim qilinmoqda.

Oliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar qo'llanma orqali «Vokal asoslari» fani bo'yicha vokal mashqlari va ma'ktab repertuaridan sara asarlarga ega bo'ladilar. Qo'llanmada vokal mashqlari va maktab repertuari asarlari oddiydan murakkabga qarab joylashish tamoyiliga amal qilingan. Berilgan mashqlar talabalarning vokal malakalarini rivojlantirishga tartibli nafas olishga to'g'ri tovush hosil qilish va diksiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar qo'shiqlarini o'rganish orqali talabalarning vokal malakalari o'sadi va kelgusidan bu asarlarni o'quvchilarga o'rgatishda metodik yo'llanmalarga ega bo'ladilar.

«Vokal darslarida ovoz sozlash mashqlari va maktab repertuari» o'quv qo'llanmasidan shu soha mutaxassislari va umumta'lim maktablarining musiqa fani o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

ASHULACHILAR OVOZLARI TAVSIFNOMASI VA DIAPAZONI

Ashulachilar ovozlarining nomlari va diapazonlari (to'ush oralari) quyidagilardan iborat:

1. Ayollarning yuqori ovozi - soprano.
2. Ayollarning pastki ovozi - alt.
3. Erkaklarning yuqori ovozi - tenor.
4. Erkaklarning pastki ovozi - bas.
5. Bolalarning yuqori ovozi - soprano yoki o'g'il bolalarning yuqori ovozi - diskant.
6. Bolalarning pastki ovozi - alt deyiladi.

Soprano ovozi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Koloratura soprano juda katta diapazonga ega bo'lib, ota harakatchan bo'ladi. Bu ovoz o'zining juda ham tiniq va ingichka temбри bilan boshqa ovozlardan ajralib turadi. Shuning uchun ham ovoz ansambl va xorga tavsiya qilinmaydi. Misol: Amerikalik ashulachi Imma Sumak.

2. Lirik soprano «do» birinchi oktava - «do» uchinchi oktava – yumshoq tembrli ovoz. Misol uchun: xalq artistlari Halima Nosirova, Saodat Qobulova, O'zbekiston xalq artisti Habiba Oxunova va boshqalar.

3. Dramatik soprano «do» birinchi oktava - kuchli ohangdor ovoz.

Masalan: O'zbekiston xalq artisti Naima Po'latova, O'zbekiston xalq artistlari Komuna Ismoilova, Farog'at Rahmatova va boshqalar.

Alt ovozi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Metso soprano 1-alt deyiladi «Sol» kichik, oktava sol ikkinchi oktava oralig'ida, yengil va to'liq jarangdor ovoz hisoblanadi.

Masalan: Munajat Yo'lchiyeva, Mehri Abdullayeva.

2. Kontralto sol kichik oktava - «re», «mi» ikkinchi oktava- juda quyuq ovoz.

Masalan: Gavhar Tojiboyeva, Munajat Teshabayeva;

Tenor ovozlar ikki xil bo'ladi

1. Lirik tenor - «do» birinchi oktava do uchinchi oktava. Juda sof jarangli ovoz masalan

O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Eson Lutfullayev, O'lmas Saidjonov va boshqalar

2. Dramatik tenor «do» birinchi oktava- «si bemol» uchunchi oktava. Kuchli jarangdor ovoz. Misol uchun O'zbekiston xalq artistlari Sattor Yarashev, Mahmudjon G'ofurov, Komiljon Otaniyozov va boshqalar.

Bas ovozlari quyidagi turlarga bo'linadi: Bariton - «lya» katta oktava - «sol» birinchi oktava. Bas - «fa» katta oktava - «mi», «fa» birinchi oktava.

Misol: O'zbekiston xalq artisti Qo'rqmas Muhiddinov.

Bas oktavist - «fa» kontr oktava - «do» birinchi oktava.

Bariton o'z tembri bilan baslarga va yuqori registr tovushlari tembri bilan tenorga yaqinlik xususiyatiga ega. Shuning uchun ham bu ovozni bas bilan tenor o'rtasidagi oraliq ovoz desa boiadi.

Bariton ikki xil bo'ladi:

1.Lirik bariton - yumshoq va harakatchan ovoz. Misol uchun: xalq artisti Jo'rabek Murodov, O'zbekiston xalq artistlari Sherali Jo'rayev, Kamoliddin Rahimov, xalq hofizi Muhiddin Qori Yoqubovlarning ovozlari lirik baritondir.

2.Dramatik bariton - kuchli va jarangdor ovoz. Misol uchun: O'zbekiston xalq artistlari Nasim Hoshimov, Sason Benyaminovlarni dramatik bariton deyish mumkin. Havaskorlik ashula va raqs ansambllari jamoalarini tashkil qilishda badiiy rahbar ovoz tembri va diapazoniga katta e'tibor berishi kerak.

ASHULA AYTISH TEXNIKASI

TALAFFUZ

Asarning badiiy matni so'zlarini tinglovchilarga aniq yetkazib berish vositasi talaffuz deyiladi. Talaffuz asarning g'oyaviy mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Agarda so'zlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni atroflicha emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi. Demak, yakkaxon va guruhli ashulachi-lik san'atida so'z va musiqa bir-birini to'ldiradi va badiiy obraz yaratadi. Yaxshi so'z talaffuzi texnikasiga ega bo'lish yakkaxon, guruhli ashulachilik ijrochiligining zarur zer-zabarlaridan biri hisoblanadi. Asarning matnini to'g'ri va aniq talaffuz qilish uchun so'zlardagi mantiqiy urg'ularga, so'zning jonli tildagi talaffuz qoidalariga ahamiyat berish lozim.

Bu borada ish olib borilganda, avvalo qo'shiq matni mazmuni, undagi badiiy obrazlarni xonandalarga tushuntirish va ifodali o'qib berish maqsadga muvofiqdir. To'g'ri so'z talaffuzi matn ustida ko'p vaqt sarflamasdan, balki uni qo'shiq aytish bilan birga ko'rsatib berish imkoniga ega. So'z va kuy bir vaqtda o'zlashtiriladi.

Aniq so'z talaffuziga erishish esa artikulyatsiya apparati til, tanglay, lablar, tishlar, jag'larning faoliyatiga bog'liq. Xususan, unli to-vushlarni hosil qilishda og'iz bo'shlig'i va lablar muhim rol o'ynaydi. Ansambl rahbarlari talaffuz ustida ish olib borganlarida, so'zlarning aniq aytilishiga e'tibor berishlari lozim.

So'zning aniq va to'g'ri talaffuzi xonanda ovoziga ijobiy ta'sir qiladi. Ansamblida so'z talaffuzining yaxshi bo'lishi olib boriladigan mashqlarga va nutq apparatining ishlashiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lum mashqlar yordamida artikulyatsiya apparati rivojlantiriladi. Masalan, ularning faolligini oshirish uchun u, yu - lab unlilari, b, m, p, v, f - lab undoshlari yordamida bu, du, mu, yo', ku kabi bo'g'inlar tuzib, mashq qilib yoki o'tovushlaridan foydalanib, «lya», «da», «na» kabi bo'g'inlarni talaffuz qilib, pastki jag'ni faollashtirish mumkin.

Shuningdek, d, z, k, l, n, r, s, t, sh undosh va a, o, u, i, ya, yu, e unlilardan «lya», «le», «lyu» va boshqa bo'g'inlardan tuzilgan mashqlar yordamida t, i, l faolligini oshirish mumkin. Masalan, qator so'zlar tuzib kecha-tun, shahar, daraxt, dorboz undoshlarini qattiq, unlilarni esa yumshoq talaffuz qilish yo'li bilan undoshlar talaffuzini yaxshilash mumkin. Undoshlarning yaxshi talaffuzi esa unlilarni yaqqol oydinlashtiradi.

Ashulachilik ijrochiligi tajribasidan ma'lumki, ko'p hollarda tovushlar bir bo'g'indan ikkinchi bo'g'inga ko'chirib talaffuz qilina-di. Masalan: shahrim so'zi «sha-hrim», «toshkent-lik» so'zi «to-shke-ntlik», «oq-bu-lut-lar» so'zi «o-qbu-lu-tlar» deb va hokazo aytiladi.

Ma'lumki, orfoepiya qoidalariga binoan jarangli undoshlar so'zning oxirida jarangsiz bo'lib eshitiladi. B-p, v-f, d-t, z-s, g-k. Masalan, kitob-kitop, barg-bark, ildiz-ildis, baland-balant va boshqalar.

XONANDALARNI TO'G'RI NAFAS OLISHGA

O'RGATISH

Ovoz tarbiyasining asosiy mezonlaridan biri xonandalarni to'g'ri nafas olishga, uni ushlashga va tejamli sarflashga o'rgatish hisoblanadi. Nafas olishning ikki turi mavjud:

1. Aralash pastki qovurg'a- diafragma usulida nafas olish.

2. Zanjir yoki ulama, nafas olish.

Pastki qovurg'ia - diafragma usulida nafas olish.

- Bu usul xonandalarga oldin tushuntirilib, keyin ko'rsatib berilishi ke'fak. Bunday nafas olishda pastki qovurg'alar kengayadi. Nafas olishda kiftlar va ko'krak qafasi ko'tarilmasligi kerak. Ashulachilarda nafas pastga - diafragma olinib, qorinning pastki qismi harakatda bo'ladi.

Nafas og'iz va burundan bir vaqtda olinadi. Nafas olishni o'rganish yakka ashula darslarida yaxshi natija beradi. Qo'llarni biqinga qo'ygan holda nafas olish kerak.

Nafas olinishini kuzatish uchun qo'llarni qovurg'alar bo'ylab pastga, yon tomonga yurita berish va bunda qorin bo'snlig'ining oldinroqqa chiqishini. qovurg'alarining yon tomonga kengayishi kuzatish mumkin. Nafasni rahbarning qo'l ishorasi bilan olib, bir tekis, shoshilmasdan chiqarishni ham o'rganish kerak. Nafas asarning tempiga, jumalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda tez, yengil, tekis, chuqur olinadi. Demak, nafas olishda gavda, bo'yinning to'g'ri erkin holatda bo'lishiga, kiftlarning ko'tarilmasligiga va nafasning diafragma olinishiga erishish zarur.

Nafas tejam bilan sarflanishi kerak. Qo'shiq aytganda haddan tashqari ko'p nafas olish mumkin emas.

ZANJIR YOKI ULAMA NAFAS Olish USULI

Zanjir usuli ayrim polifonik xor asarlarida yoki cho'zib turiladigan tonika va dominant organ punktlarida uzoq muddatgacha nafas olish mumkin bo'lgan paytlarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, asarning boshidan oxirigacha bir nafas bilan qo'shiq aytib bo'lmaydi. Ko'p ovozli katta asarlar ijro etishda, kuy cho'zilib qolmasligi uchun xonandalar birdaniga bir vaqtda emas, balki navbatma-navbat nafas oladilar. Ya'ni, bir xonanda nafas olganda, yonidagi ikkinchi xonanda ijroni cho'zishni davom ettiradi. Bu xonanda nafasni rostldgach, u bo'shqalardan ajralmagan holda ijro partiyasiga qo'shiladi. Natijada kuy uzluksiz taralaveradi. Bu usul zanjir yoki ulama nafas olish deyiladi.

XONANDALARNI QO'SHIQ AYTISHGA TAYYORLASH

(Ovoz mashqlari)

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlash jarayonida qilinadigan ishlar ham ovoz sozlash tarbiyasi turkumiga kiradi. Ma'lumki, har bir mashg'ulot xonandalarning ovozlari qo'shiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini ko'zda tutuvchi mashqlarni bajarijshdan boshlanadi.

Bu mashqlar 10-15 minut va undan ko'p davom etadi. Ovozni qo'shiq aytishga tayyorlash mashqlari ma'lum tartibda o'tkazilib, ovozni to'g'ri hosil qilishga, to'g'ri nafas olishga yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishiladi. Natijada xonandalarning ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi.

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlashning turli uslublari mavjud;

-mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo'yicha kichik guruhlar bilan ishlash;

- ma'lum unli tovushlar bo'g'inlar va so'zlar yordamida ish olib borish;

- turli tovush yo'nalishlarida (legato, stakkato, markato, nonlegato) uslubida ish olib borish;

- turli dinamik (tovush kuchi) sur'at usullarida ish olib borish;

- ayrim xalq qo'shiqlari bo'lakchalaridan foydalanib ishlash;

- diapazonning ma'lum qismida (ma'lum registrda) kengaytirib ish olib borish.

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabgacha bo'lgan tartibda olib boriladi.

OVOZ TAVSILOTI

Har bir o'quvchi va o'qituvchi vokal pedagogikasi tamoyillari, uslubiy ko'rsatmalarini bilishi hamda yodda tutishi shart. Ovoz ustida ishlash jarayonida ovoz unsurlari uchun harakatda bo'lishi talab qilinadi.

Ya'ni nafas, hiqildoq, nutq a'zolari va ovoz rezonatorlari bir-biriga bog'langan va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatgan holda harakatlanadi. To'g'ri uyg'unlashish natijasida murakkab ovoz apparati tizimi vujudga keladi. Bunda ovoz bog'lamlari oz miqdorda kuch sarf qilib, yuksak akustik samaraga erisha oladi. Ovoz apparatining barcha faoliyatini markaziy asab tizimi boshqaradi. Shu tufayli har bir tovush xonandaning musiqiy qobiliyatining natijasi deb baholanishi kerak. Shu boisdan bo'lajak ijrochining ichki ma'naviy dunyosi katta ahamiyatga ega. Xonandaning musiqiy mafkurasi qancha yaxshi rivojlangan bo'lsa, uning ijrochilik madaniyati shuncha yuqori bo'ladi. Yosh xonandalarning musiqiy, vokal eshitish qobiliyatlarini mukammal darajaga yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Vokal eshitish qobiliyati ovozning o'ziga xos (tembr) sifatlarini idrok qila bilishga va uning fiziologik shakllanishini tushunib yetishga yordam beradi. Professional xonandaning tovushi oddiy so'z tovushidan sezilarli darajada farq qiladi, chunki uning akustik spektrida ovoz formantlari bor (YuOF - yuqori ovoz formantlari 2500-3000 gs atrofida, POF - past ovoz formantlari esa 500-600 gs). Tovush to'g'ri hosil bo'layotganligini eshitish va tushunish, ayrim muskullarni haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik (hiqildoq, nafas va boshqa a'zolarida), qabul qilingan umumiy estetik etalondan chekinmaslik va o'zligini saqlab qolish g'oyat muhimdir.

Ohangni to'g'ri ifodalash va uni tahlil qilishda vokal san'at ustalarini doimiy tinglash katta yordam beradi. Ovozni to'g'ri ishlata bilishni tarbiya etish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir. O'qituvchi o'z shogirdining ovozini rivojlantirish yo'lida turli usullardan foydalanadi. Bunda talabga javob bera oladigan mashqlar, vokalizlar hamda tavsiya etilgan musiqa asarlari qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchiga ijrochilik yo'llarini o'z ovozida namoyish etadi, ko'rsatmalar beradi. Unli va undosh tovushlarning o'zidan keyin keladigan tovushlarga ta'sirini tushuntiradi, fonetik usullarni ishlatadi. Bunday keng va atroflicha o'tilgan darslar shogirdni to'g'ri yo'lga boshlaydi, ovozidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Mazkur qo'llanmada qo'shiqchilikka ilk qadam qo'ygan talabaning ovozini shakllantirish uchun yetarli material mavjud bo'lib, uning musiqiy, xususan, vokal qobiliyatining yo'nalishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qo'llanmadan keng miqyosidagi musiqiy asarlar, xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq vokal, turli davr va uslublardagi professional musiqa, o'zbek bastakorlarining asarlaridan namunalar, amaliyotda, ya'ni konservatoriyada vokalistlarni o'qitish jarayonida sinovdan o'tgan mashqlar o'rin olgan.

Ariya, romans yoki qo'shiqlar ijrosida talabaning ovoz unsurlari to'liq ishtirok etadi va badiiy ifoda vositalarini oydinlashtiradi (tovush yangrashi, ijrochilik uslubi). Bunda xonandaning e'tibori musiqiy obraz taassurotiga qaratilgan bo'ladi va u ovoz apparati faoliyatiga deyarli ahamiyat bermaydi. Har bir ishda bo'lganidek, xonandani tarbiyalashda ham mashg'ulotlarning boshlang'ich davri hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quvchi dastlabki qadamidanoq o'z imkoniyatlarini to'g'ri fahmlashi juda muhimdir. Ovoz diapazonining o'rta qismida yoqimli, xushovoz tovush bilan kuylay olish, murakkab bo'lmagan asarni ifodali ijro eta bilish shular jumlasvdandir.

Tajribali pedagog yangi talaba bilan dars boshlashdan avval, uning vokal va musiqiy qobiliyatini, ovozi qaysi tipga mansubligini, musiqa ilqash darajasini taxminan bo'lsada o'rganmoqligi darkor. Asab tizimi va ruhiyatining xususiyatlaridan xabardor bo'lishi zarur. Mashg'ulotlarning dastlabki davrini "tanishish davri" deb atash bejiz emas. Aynan shu davrda o'qituvchi va o'quvchi orasida ijodiy munosabat yuzaga keladi. O'quvchisining ovozidagi nuqsonlarni tezkorlik bilan tuzatishga kirishish tavsiya etilmaydi. Bu hol o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini cheklab quyishi mumkin. Tajribali pedagoglarning dastlabki darslarida "aralashmaslik siyosati"ni ko'rish mumkin. Biroq aynan shu davrda pedagog o'quvchining vokal qobiliyatini asta-sekin, muntazam va nihoyatda samarali rivojlantirishni ko'zda tutgan shaxsiy reja tuzmog'i darkor. Mashg'ulotlarning boshlang'ich davrida talaba ovoziga ortiqcha og'irlik yuklamaslik, dars jarayoni esa 20-25 daqiqadan oshib ketmasligi kerak. Dars unumli o'tishi uchun qadimgi Italiya maktabi davrida qabul qilinganidek, bir kunda ikki marta mashg'ulot o'tkazish tavsiya etiladi. Aks holda, bu yangi, hali odat tusiga kirmagan faoliyatdan nafaqat ovoz apparati, hatto asab tizimi ham toliqib qoladi.

Agarda talabaning ovozi dars nihoyasida yomonroq yangray boshlasa, mashqlar haddan tashqari ortiq bo'lganini bildiradi. Bunday hollarda mashg'ulotlar miqdorini qisqartirish darkor.

Talabalar ko'pincha "qancha ko'p mashq qilsam, shuncha tez to'g'ri kuylashga o'rganaman" degan fikrda bo'lishadi. Bu tushuncha noto'g'ri ekanligini aytib, uyda mustaqil mashq qilishni qat'iyman etish lozim. Noto'g'ri va o'rinsiz mashqlar hech qanday foyda keltirmaydi. Aksincha, o'qituvchi bilan bo'ladigan uchrashuvlar soni iloji boricha ko'p bo'lishi kerak. Boshlovchi talaba bilan kuniga ikki marta - ertalab va kechki payt mashg'ulot o'tkazish ma'qul.

Ovoz ustida ishlashni markaziy diapazon qismidan boshlash lozim. Bunda erkin, tabiiy ohangdorlikka erishishga intilgan holda yuqori va quyi tonlarni ishlatmaslik kerak. Chunki bu tonlar ovoz apparatining ma'lum darajada zo'riqlashiga olib keladi. Ayrim tovushlarni ijro etishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Buni bartaraf etish uchun o'qituvchi yaxshi shakllanayotgan unli tovushlarni aniqlab, ularqni dastlabki mashqlarga asos qilib olishi kerak.

Mashqlarning ijrodagi dinamikasini tanlashda o'quvchining shaxsiy xususiyatlari nazarda tutilishi lozim. Baland ovoz bilan kuylash ko'pincha jadallik bilan bog'langan. Bunda ovoz apparati haddan tashqari zo'riqlashi mumkin. Nihoyatda past ovoz bilan kuylash esa yosh xonandaning nafas "tayanchi" yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun dastlabki mashqlarda tovushning kuchi o'rtamiyona bo'lishi maqsadga muvofiq. M.I.Glinka "erkin" kuylashni, ya'ni nafas apparatini sipolashtirmaslik yoki unga zo'p bermaslikni tavsiya etgan.

Ovoz apparatining umumiy holatini tasavvur etish uchun pedagog o'z o'quvchisini vrach-foniator ko'rigidan o'tkazishi kerak. O'qituvchi ovoz apparatining anatomik tuzilishini bilishi muhimdir, chunki bu ovoz tipini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Shuni ham yodda tutish kerakki, xonandalik san'atiga ilk qadam qo'ygan o'quvchining ovozi an'anaviy tasniflarga har doim to'g'ri kelavermaydi (masalan: soprano, messo-soprano, kontralto, tenor, bariton, bas kabi). Xonanda ovozining qaysi guruhga mansub ekanligini o'z vaqtida aniqlash ovozni to'g'ri va tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi paytda ovoz tipini bexato aniqlay oladigan yagona uslub mavjud emas. Ba'zi hollarda bas o'zi havas qilgan tenorga ovozini o'xshatishga harakat qiladi. Natijada tovushning shakllanishi yuzaki bo'lib qoladi. Tenor esa o'zini "murakkablikdan" xoli qilish uchun bariton deb aytaydi. Pedagog o'quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik uslubidan ajrata bilishi kerak. Ovoz tipini aniqlashda tembr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari (markaziy tovushlar), tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik-anatomik belgilar (ovoz bog'lamalarining uzunligi va zichligi, rezonator tuzilmalar va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak.

Tajribali vokal o'qituvchi o'quvchisining ovoz tembridan ko'p narsani bilib oladi. Bu shaxsiy akustik xususiyat turli tessituralarda sinchiklab tekshirilishi lozim. Tembrning eng yaxshi sifatlarini eshitish uchun bir asarni yondosh tonalliklarga ko'chirib ijro etish mumkin. Diapazon ham ovoz tipini aniqlovchi belgilardan biridir. Biroq u o'quvchida doim ham to'la hajmda ifodalanmasligi mumkin. Ko'pincha u chegaralangan bo'ladi. Ba'zi hollarda uchraydigan messo-soprano va soprano tonlarini o'z ichiga olgan nihoyatda keng diapazon ham foyda bermaydi.

Ovozni to'g'ri tasnif qilishda registr tuzilishini o'rganish yordamchi vositadir. Yangrash chiroyli bo'lgan o'tish va markaziy tonlarning joylashishi ham ovozni to'g'ri aniqlashda ko'mak bo'la oladi. Vokalistlarda o'ziga xos quyidagi o'tish tonlari mavjud:

tenor - mi - fa - fa - diez birinchi oktava

bariton - re - mi - bemol - mi - birinchi oktava

bas - si - bemol - si kichik va do, do-diez birinchi oktava

soprano - mi - fa - fa - diez - ikkinchi oktava

meso-soprano - do-diez, re, re-diez - ikkinchi oktava

U yoki bu tessiturani ushlab turish qobiliyati ma'lum darajada o'quvchining ovoz diapazoni qanday ekanligiga bog'liq.

Diapazonning cheklanganligi o'quvchining tessitura imkoniyatlarini ham cheklab qo'yadi. Shunday bo'lsada, ularni o'rganish ovoz tipini aniqlashda katta yordam beradi.

Ovozning fiziologik-anatomik belgilari va xronaksimmetriya yordamchi omil vazifasini o'tashi mumkin. Ovoz tipi va ovoz bog'lamlarining uzunligi munosabatlarida ma'lum qonuniyatlar mavjud: ovoz tipi qanchalik yuqori bo'lsa, ovoz bog'lamlari shunchalik qisqa va nozik bo'ladi. Ayrim mashhur xonandalar bu qoidadan mustasno. Masalan, E.Karuzoning ovoz bog'lamlari baritonga xos bo'lgan, D.M.Mixaylovning ovoz bog'lamlari esa boshqa baslarga nisbatan qisqa bo'lgan. Hiqildoq asabining harakat tezligini o'lchashga asoslangan xronaksimmetriya metodi bizning mamlakatimizda tarqalmagan va hozircha ovoz tipini aniqlashda aniq o'lchov bo'la olmaydi. Yuqorida aytib o'tilgan kompleks qaydlar orqali va kundalik amaliy mashg'ulotlar jarayoni natijasida to'g'ri diagnoz qo'yilishi mumkin.

Vokal pedagogikasida umumiy tamoyillar ishlab chiqilgan. Ularni barcha pedagoglar yosh xonandalarni tarbiyalashda qo'llab kelishmoqda. Har bir pedagog ushbu tamoyillarga rioya qilishlari shart.

1. Xonandaning badiiy va texnikrivoj-lanish tamoyillari birligi. Xonandaning vokal texnikasi rivojlanishi badiiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Badiiy maqsadlar u yoki bu texnik uslubni tanlash va tanlangan uslub ustida ishlash yo'llarini aniqlab beradi. Shu sababli musiqiy mushohada badiiy did va keng ma'nodagi vokal qobiliyatlarini o'stirish va tarbiyalashni talab etadi. Demak, mashg'ulotlarning barcha bosqichlarida badiiy rivojlanish texnik rivoj bilan uzviy birlikda bo'lishi kerak.

Xonandaning badiiy va texnik rivojlanishi haqida so'z yuritar ekanmiz, ushbu tamoyilni tushunishda rasmiyatchilik nuqtai-nazardan voqif etishimiz lozim. Tabiiyki, dastlab o'quvchi va o'qituvchining diqqat-e'tibori ko'proq texnik belgilarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Mashg'ulotlarning songgi bosqichlarida esa o'quvchining artistik qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy ijrochilik masalalari asosiy o'rin egallaydi.

2. O'quvchiga bo'lgan shaxsiy munosabat tamoyillari. Har bir o'quvchi betakror shaxs (fizio-logik-anatomik, ruhiy, musiqaviy nuqtai nazarlardan). Shuning uchun ham vokal pedagogikasi tarbiya vositalariga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Ovoz apparatining o'ziga xos xususiyatlari ona tilining fonetik xususiyatlari bilan bog'langan bo'ladi. Buni nazarda tutgan holda har bir o'quvchi uchun maxsus mashqlar tuzish yaxshi samara beradi.

3. Mahoratni egallashda asta-sekinlik va muntazamlilik tamoyillari. Mazkur tamoyil didaktikadan o'zlashtirilgan, biroq xonanda tarbiyasi borasida qo'llanganda, u alohida ahamiyat kasb etadi. Ovoz rivojlanishi asta-sekinlik bilan kechadi, (markaziy tonlardan boshlab diapazon va dinamik imkoniyatlarini hisobga olgan holda). Vokal mashqlari muntazam ravishda - oddiydan murakkabga, vazminlikdan tezlikka, musiqiy ijrochilik vazifalarini murakkablashtirish tamoyiliga asoslangan bo'lishi kerak. Har bir o'quvchining murakkab dramatik repertuarga asta-sekinlik bilan yetib kelishi juda muhim. Yosh xonanda, ovozining shakli va kuchidan qat'iy nazar, dastlabki yillarda lirik asarlar asosida tarbiyalanishi lozim.

4. Muntazam takomillashtirish tamoyili. Bu tamoyil mahoratni butun ijodiy hayot davomida tinmay rivojlantirish, unga sayqal berish mumkinligini anglatadi. Salohiyat faqatgina erishiladigan muvaffaqiyat imkoniyatini belgalaydi. Xonanda-san'atkorning yo'li esa - o'z ustida tinmay ishlash, mukammallikka intilish yo'lidir. "Men faqat iste'dodning kuchigina najotkor bo'lishiga ishonmayman", deb yozgandi F.I.Shalyapin. A.T.Rubinshteyn esa "Bequnt iste'dod halok bo'ladi, lekin qunt iste'dodsiz bo'lsada - shuhrat qozonadi" deb ta'kidlagan edi. Muntazam, fidokorona mehnatgina xonandani mahorat cho'qqisiga olib boradi. Vokal pedagogikasi quyidagi metodik ko'rsatmalarni tavsiya etadi:

1. Ko'krak-qorin nafasidan foydalanish.
2. Barcha ovozlarga xos bo'lgan past va yuqori ovozda kuylash shakllarini ta'minlovchi baland me'yor.
3. Ijro etilayotgan asar mazmunidan kelib chiqqan holda turli balandlikdagi tovushlarni boshqarishda ko'krak va bosh rezonatorlaridan foydalanish.
4. Hiqildoqni erkin holatda tutish.

5. Yon naycha muskulini zo'riqtirmaslik.

Vokal ko'nikmalarni hosil qilishda mashqlar asosiy o'rin egallaydi. Bu o'quvchi bilan doim bog'liq bo'lgan eng oddiy musiqiy materialdir. To'plamga Italiya, Rossiya, Fransiya va Bolgariada mashhur bo'lgan pedagoglarning mashqlari kiritilgan.

Ovoz turlanishiga qarab har bir mashq qulay tonallikka ko'chirilishi kerak. Yuqori ovozlarda mashqlarni bajarish uchun Fa-major tonalligi ma'qulroq bo'ladi, o'rta ovozlarda uchun - Re-major, past ovozlarda uchun - Do-major. Berilgan mashqni ijro etishda ohang va ritmlarni aniq ifodalanishini sinchiklab kuzatish darkor. Xonanda mashqlarni birdan-bir, yagona maqsad deb bilmasligi kerak, balki ovozning tembr sifatlarini takomillashtiruvchi hamda texnik ko'nikmalarning rivoji uchun zarur bo'lgan vosita deb qarashi lozim.

Agar o'quvchi dastlabki darslardan o'qovchi mashqlariga rasmiyatchilik bilan emas, balki badiiy kayfiyatni ifodalovchi jarayon deb qarasa, unda yutuq ko'proq bo'ladi. Bu kayfiyat avvaliga aytarli murakkab bo'lmasligi mumkin (major ladidagi harakatchan mashqlar shodlik holatini anglatadi, legato bilan berilgan uzun notalar Vatan tuyqusiga xos, minor ladidagi mashqlar g'amginlikni ifodalaydi va hokazo). Bunday mashqdar o'quvchini kelgusida rasmiy ijrochilikdan saqlab, uni ma'noli kuylashga o'rgatadi.

Ta'limning birinchi yilda biz tavsiya etgan mashqlar bilan cheklansa bo'ladi. O'quvchilar turli mashqlarni haddan tash-ari ko'p kuylashdan voz kechishlari kerak. Faqat ayrim mashqlar mashg'ulotning asosi qilib olinishi ma'qul. Ular har darsda qaytarib turiladi va ularning ijro etilishiga qarab pedagog o'quvchining vokalda erishayotgan yutuqlari hamda mavjud bo'lgan nuqsonlarini bilib boradi. Bundan tashqari yaxshi yod bo'lib qolgan mashq o'quvchining e'tiborini turli vokal-texnik va musiqaviy vazifalarni bajarishga jalb etadi. Faqat kundalik vokal mashqlarni bajarish natijasida ovoz rivojlana boradi, ovozdagi nuqsonlar bartaraf etiladi. Shu bilan birga, murabbiy-ustoz talabaning bosh, gavdasini tutishiga, mimikasi va yuz ifodalariga ham e'tibor berishi lozim. Talaba o'zini erkin, bamaylixtir, shu bilan birga faol tutishni o'rganishi kerak. Vokal mashqlari yordamida o'rinsiz bo'lgan ba'zi muskul zo'riqlashlaridan xalos bo'lishi kerak. Ko'llarning qovushmaganligi, lablarning qiyshayishi, ko'zlar baqrayishi kabi xunuk holatlar odat tusiga kirmasdan oldin bartaraf etilishi lozim. Talaba kuylayotgan paytda uning ko'krak qafaslari erkin, yoyiq diafragma va qorin muskullari nihoyatda muloyim holatda bo'ladi. Bu holatda xonandaning gavdasi to'g'ri vaziyatda bo'ladi. Ijro etish paytida bukchaymaslik va haddan tashqari qorinni oldinga chiqarmaslik kerak. Past (yo'g'on) ovoz sohiblari bo'lgan erkak va ayollar ko'krak rezonatorlarining yangrashiga e'tibor berishlari lozim.

Xonandaning o'z qomatini tabiiy va go'zal namoyish etishi alohida ahamiyatga ega. Boshni juda baland ko'tarish, oldinga yoki yon tomonlarga egmaslik zarur. Bularning hammasiga birinchi darslardan o'qovchi berish lozim. Boshni to'g'ri tutish faqatgina estetik maqsadni ko'zda tutmaydi. Tajribali pedagoglarning fikricha, boshning to'g'ri holatda bo'lishi tovushning to'g'ri shakllanishiga imkon beradi, oldinga engashganda bo'g'i ovoz hosil bo'ladi. Xonandaning yuzi burishmasligi, yuz muskullari ortiqcha zo'riqlashligi kerak. Majburiy jilmayish, lablarni doim bo'rttirish yoki og'izni katta ochish mutlaqo shart emas. Jilmayish organizmning umumiy holatiga quvvat beruvchi ta'sirchan omildir. U ruhni ko'tarishga, ijodiy faollashishga, mashtulotni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga sabab bo'la oladi. Ammo jilmayishni tishlar ko'rgazmasiga aylantirish yaramaydi.

Ko'p hollarda talabaning ko'zlarida zo'riqlash alomatlari sezilib turadi. Vokal-texnik vazifalarga diqqatni jalb etishi natijasida uning ko'zlari va yuzida ma'nosiz ifoda aks eta boshlaydi. Bunday hollarda diqqat ruhiy-timsol mazmuniga qaratilsa, ko'zlar yana "qalb ko'zgusi" holiga qaytib, ijrochining badiiy maqsadini ifodalay boshlaydi.

Ushbu dasturdagi dastlabki mashqlar ovoz diapazonining markaziy qismida to'g'ri tonlar hosil qilish va ularni bir-birlariga bog'lab, musiqa jumalari tashkil etilishiga qaratilgan. Tovushlar bog'lanayotganda diqqatni legato belgisiga qaratish lozim. Ba'zi hollarda yengil ovozlarda stakkato shtrixiga tez bo'ysunadi. Ikkinchi bo'limdan vokaldagi unli tovushlarni yangrash orasidagi farqni kamaytirishga qaratilgan mashqlar o'rin olgan. Mabodo o'quvchi u yoki bu unli tovush talaffuzida qiyinchilik sezayotgan bo'lsa, bu holda ushbu tovush o'quvchi tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan unli tovushlar orasiga joylashtiriladi. Misol uchun **a**-ni tutatish kerak bo'lsa, quyidagi ketma-ketliklarni qo'llash mumkin:

i - a - i,

u - a - u,

e - a - e,

o - a - o.

Mashqlarni avvaliga qisqalaridan boshlab, so'ngra uzoq davom etadiganlariga o'tish bilan davom etish maqsadga muvofiqsir.

Bir qancha mashqlar ovoz qarakatchanligini ta'minlashga, dinamik belgilarni (*pf*) ishlatish, hamda registrnlarni tenglashtirishga qaratilgan. To'plamdan artikulyasiya apparatining mutanosibligini rivojlangantiruvchi va undosh tovushlarni ravon shakllanishiga yordam beruvchi maxsus mashqlar ham o'rin olgan.

Keltirilgan vokal mashqlar orasida ovoz sozlash (popevki) deb ataluvchi mashqlar alohida o'rin tutadi. Qator mashqlar ko'pchilik pedagoglarning turli uslub va maktablariga oid tajribalari asosida tuziigan. Bular Italiya, Rossiya, O'zbekiston, Ukraina, Estoniya kabi mamlakatlar pedagoglarining mashqlaridir.

Mashqlarni har bir talabaning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlash zarur. Ularni transpozisiya qilishda ovoz imkoniyatlari hisobga olinadi. Vokal mashqlari ovozni rivojlantirishda ishonchli va muhim omildir. O'quvchi ovozda ohang hosil qilish va ularni bir-biriga bog'lab musiqa jumllarini tuzish yo'llarini egallagach, vokalizlarni o'rganishga o'tishi mumkin. Vokalizlar xuddi etyudlar kabi ovozni idora eta bilish texnikasini takomillashtirishga hamda talabani musiqiy ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir vokaliz, ya'ni so'zsiz kuy shaklidagi mashqlar, ijrochi oldiga ma'lum texnik (shtrixlarni ishlab chiqish, murakkab intervallarni egallash) vazifalarni qo'yadi hamda badiiy mohiyatga ega bo'lganligi tufayli ijrochidan mantiqiy, ma'noli talqinni talab etadi.

Umumiy vokal metodikasi, o'quvchini tarbiyalashda vokalizlarning o'z o'rnini bor, deb hisoblaydi. So'zsiz kuylash - kuyni aniq va ravshan ifodalash, musiqa shaklini mukammal egallash, ijrochilik ko'nikmalarini tobora orttirishga imkon beradi. Xonandada temp (sur'at) va ritm hissiyoti vujudga keladi. U muallif ko'rsatgan tovush kuchini kerakli tessiturada ushlab turishga o'rganadi. Odatda vokalizlar unli (a, o, e) tovushlar bilan aytiladi. O'quvchi oldiga qo'yilgan vazifaga qarab, musiqa jumllari undosh tovush bilan ham boshlanishi mumkin. Masalan, **la-a-a**, **zo-o-o**, **re-e-e** va hokazo. "U" va "i" unli tovushlarga vokaliz qilmaslik tavsiya etiladi, chunki passajlarda "u" g'uvilashni, "i" esa kishnashni eslatadi.

Yosh xonandaning boshlang'ich ta'limi uchun qo'llanmada berilgan vokalizlar yetarlidir. Badiiy asarni ijro eta olish – o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi asosiy vazifalaridir. Muallif tomonidan o'quv repertuari sifatida kiritilgan romanslar, qo'shiqlar va ariyalar alohida vokal-texnik tayyorgarlikni talab etmaydi. Badiiy asarlarning asosiy qismini o'zbek kuy va qo'shiqlari tashkil etgan. Biroq shuni aytish kerakki, mashg'ulotlarni birdaniga badiiy asarlarni ijro etish bilan boshlash ma'qul emas. Buning uchun avvalo ovoz, tovushlarni to'g'ri shakllantirish, ularni bir-birlariga bog'lash asoslarini egallash lozim. Bu mashq kamida bir yil davom etadi.

O'quvchini tayyorlashda qadimgi harbiy Yevropa klassiklari (Gendel, Bax, Skarlatti, Mosart va boshqalar)ning asarlari alohida o'rin tutadi. Ularning mazmun mohiyati oydin va ravshan shakllar orqali ochiladi. Yosh xonanda ijro etadigan asarlarini atroflicha o'rganmog'i zarur, ya'ni so'z mazmunini to'la tushunishi, musiqa va so'z ifodalarini uyg'unlashtirishi, vokal-musiqa ifoda yo'llarini egadlashi joiz. Xonanda ijrochilikka qo'ygan dastlabki qadamlaridanoq o'rganayotgan asarning uslub (stil)i bilan to'qnashadi. Uslubni to'g'ri his etish uchun musiqani anglash, umumiy saviyani oshirish taqozo etiladi.

Ijrochilik tahlili usulini o'rganish esa asarni tushunish va uning g'oyaviy mazmunini ochib berishga zamin bo'ladi. Asarni tahlil qilishda avvalo uning umumiy tuzilishiga ahamiyat beriladi, goyaviy fikrni muallif qanday yoritib bermogchi ekanligi, asarning avji va boshqalar aniqlanadi.

Ijroning muvaffaqiyatli chiqishi uchun ritm harakatlarini to'g'ri bajarish va ohanglarni nuqsonsiz kuylashga erishish lozim. Ijrochilikda erkinlik faqatgina muallif tomonidan nota yozuvida berilgan ritm harakatlari puhta egallangandan so'nggina bo'lishi mumkin. Yosh xonanda jumllarni aniq va ravshan ifodalashga erishishi kerak. Har bir jumla musiqiy va mantiqiy

urg'ulardan iborat ekanligani doimo yodda tutishi lozim. Odatda, jumlaning musiqiy urgusi uning avjiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda u faqat urg'u hisobiga emas, balki shu nuqtada biroz ushlanib turishiga ham bog'liq. Keyingi harakatda ohang tiklanishi yoki yanada tezlashishi mumkin.

O'quvchi mantiqiy so'zga urg'u berishni nazarda tutgan holda jumla ma'nosini oydinlashtiruvchi asosiy so'zni ajratib ko'rsatishi lozim. Xonanda tomonidan to'g'ri quyilgan so'z urg'usi tinglovchilarga jumlaning asl mazmunini to'la yetkaza oladi. Biroq mantiqiy urg'ularga nihoyatda zo'r berish maqsadga muvofiq emas. Chunki talaffuzni bo'rttirish natijasida ohang sokinligi buzilishi mumkin. Musiqiy jumla urg'usi va uning mantiqiy urg'ulari mos kelishi mumkin, lekin doim ham shunday bo'lavermaydi. Bunday mos kelmaslik M.I.Glinka, S.A.Dargomijskiy va boshqa bastakorlarning romanslarida ko'plab uchraydi. Keskin muvofiqliklardan mohirona o'ta bilish musiqa jumllariga latofat va nafislik baxsh etadi.

Kuchsiz xodssalarni maromiga yetkazmaslik, uzunliklarini kisqartirib, ularni oxirigacha kuylamaslik o'quvchilar orasida keng tarqalgan xatolardan hisoblanadi. Bu kamchilik tajribasiz xonandaning so'z mantiqiga urg'u berish istagida kuchli yoki nisbatan kuchli hissani ta'kidlash tufayli yuzaga keladi. Ba'zan boshqa kamchiliklar ham ko'zga tashlanib turadi. Ijrochi ohang notalarini uzunlik va balandlik jihatdan to'g'ri ijro etishi mumkin. Biroq jumlaning mantiqiy urg'usi va uning elastik harakati e'tibordan chetda qoladi. Musiqiy jumlaning elastikligiga ko'proq ovozni idora eta bilish, yumshoq, kantatena yo'llarini egallashga bog'liq bo'ladi. O'quvchi jumllarni to'g'ri tuzish orqali asta-sekin musiqa shaklini yaxlit seza boshlaydi. Musiqa jumlasini ma'lum bir sur'at va ritm doirasiga tushira bilish musiqa shaklini his etishning eng asosiy shargaaridan biridir.

Sur'at (temp) odatda asar boshida muallif tomonidan beriladi. Tez sur'at hech qachon shoshilinch degan ma'noni bermaydi, turg'un ham bo'lmasligi kerak. Kamdan-kam hollarda sur'at o'zgarib bo'ladi. Uning o'zgarishida *accelerando*, *ritardando*, *robato*, *allargando*, *fermato*, *ad libitum* kabi iboralar ishlatiladi. Ijrodagi barcha dinamik harakat, o'zgarishlar asosiy temp va ritmga qaytish evaziga bo'lishi kerak. Sur'atni egallash, bilish - bu musiqa asarining shakli va asosiy sur'atini buzmasdan turib, barcha murakkab dinamik harakatni ishlata bilish demakdir.



Musiqiy ifoda unsurlaridan bo'lgan pauzalarning mohiyati haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Ko'pchilik yosh xonandalar pauzani obrazlar doirasidan chetga chiquvchi, musiqa harakatini uzib qo'yuvchi belgi deb biladilar. Bu noto'g'ri tushuncha bo'lib, pauza vokal musiqasida eng ifodali vositalardan biri hisoblanadi.

Vokal san'atida ohang ifodasi va ovoz tembrlarining ta'sir kuchi nihoyatda yuqori bo'ladi. Agar tovush erkin va tabiiy hosil bo'lsa uning tembri bizni quvontiradi. Mashhur san'atkor F.I.Shalyapin o'zining butun ijodi davomida ohangni haqqoniy ifoda etish yo'lini izlagan. Ohang o'z ifodasini yo'qotsa, vokal jonsiz san'atga aylanadi.

